

**KREATIV TAFAKKUR TUSHUNCHASI VA UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK
MAZMUNI****Zarina Hayitboyeva Otanazarovna****Nukus Davlat Pedagogika Instituti****I-bosqich tayanch doktoranti****zarinahayitboyeva@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15576063>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ tafakkur tushunchasining zamonaviy talqini va uning psixologik-pedagogik mazmuni chuqur tahlil qilinadi. Muallif kreativ tafakkurni nafaqat yangi g'oyalarni yaratish, balki o'quvchilarda hayotni tahlil qilish, muammolarga yangicha yondashuv topish, hissiy barqarorlikni saqlash va intellektual jur'at ko'rsatish qobiliyati sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotda kreativ tafakkur inson tafakkurining kompleks shakli sifatida qaralib, uni rivojlantirishda o'qituvchining psixologik yondashuvi, raqamli ta'lim vositalari va ijtimoiy muhitning o'zaro bog'liqligi asosida yangi nazariy model taklif etiladi. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlovchi pedagoglar, psixologlar hamda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni izlayotgan mutaxassislar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Annotation: This article explores the psychological and pedagogical essence of creative thinking as a key competence of primary school students in the digital education environment. The author emphasizes that creative thinking is not only a mental process, but also a strategic resource for solving educational tasks in innovative ways. The research highlights the importance of forming creative cognitive mechanisms from early schooling by integrating digital tools and interactive teaching methods. The article presents new views on how digital technologies, when purposefully applied, can enhance students' intellectual flexibility, originality, and problem-solving skills. Scientific insights are offered to modernize the educational process and support the development of creative thinking through targeted psychological-pedagogical conditions.

Kalit so'zlar: Kreativ tafakkur, boshlang'ich ta'lim, raqamli vositalar, psixologik-pedagogik sharoitlar, ta'limdagi innovatsiyalar, interaktiv metodlar, intellektual rivojlanish

Keywords: Creative thinking, primary education, digital tools, psychological-pedagogical conditions, innovation in learning, interactive methods, intellectual development

XXI asrda jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishi, raqamli texnologiyalar rivoji va sun'iy intellektning kundalik hayotga chuqur singib borishi inson tafakkurining yangi bosqichda shakllanishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv va informatsion portlash davrida ta'lim jarayoni oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxsning mustaqil fikrlay oladigan, yangicha yondasha oladigan, innovatsion g'oyalarga boy, kreativ tafakkur egasi bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Kreativ tafakkur — bu insonning mavjud muammolarga noodatiy yondashish, yangi g'oyalar yaratish, ilg'or fikrlash va muqobil yechimlarni topishga qaratilgan aqliy faoliyat shaklidir. An'anaviy tafakkur shakllari (reproduktiv, mantiqiy, algoritmik) zamonaviy axborot jamiyatida ko'p hollarda yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu bois, kreativ tafakkurni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki milliy taraqqiyot va xalqaro raqobatbardoshlikning muhim mezoniga aylanmoqda. Kreativ tafakkurning psixologik-pedagogik mazmunini o'rganish, uni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash – zamonaviy pedagogikada dolzarb yo'nalishlardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning keyingi

bosqichlardagi fikrlash dinamikasini belgilaydi. Kreativ tafakkurni ko'plab olimlarimiz o'rgangan, bu bo'yicha tadqiqot ishlarini olib brogan. Shulardan: E. Torrance¹ (Amerikalik psixolog, ijodkorlikni o'rganish bo'yicha taniqli mutaxassis):

1. Torrance, E.P. (1974). Creativity: What, Why and How.

“Kreativ tafakkur — bu mavjud ma'lumotlar asosida yangi va original g'oyalarni ilgari surish, muqobil yechimlarni topish qobiliyatidir. Bu faqat tug'ma emas, balki rivojlantiriladigan sifatdir.”

J. Guilford ²(Amerikalik psixolog, intellekt strukturasini tahlil qilgan olim):

“Kreativlik divergent (tarqoq) fikrlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, insonning bir muammoni hal etishda ko'plab turli xil, kutilmagan va samarali g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi” deya o'z fikrlarini bildirgan.

Kreativ tafakkur — bu inson tafakkurining eng yuqori bosqichi bo'lib, mavjud axborot, bilim va tajribalarni yangicha ko'rinishda qayta ishlash, ulardan yangi g'oyalarni yaratish jarayonidir. An'anaviy tafakkur muammoga bitta to'g'ri javob topishga intilsa, kreativ tafakkur ko'p tomonlama va turli nuqtai nazardan qarashni taqozo etadi. Bu xususiyat ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu davr bolalarning tafakkuri, qiziqishlari va dunyoqarashi shakllanadigan asosiy poydevor hisoblanadi. Kreativ tafakkurni rivojlantirishda psixologik yondashuvlar, avvalo, bolaning erkin fikrlashiga, o'zini erkin ifoda etishiga, xavfsiz psixologik muhitda faoliyat yuritishiga imkon berishi kerak. Shu bilan birga, kreativlikni rag'batlantirish uchun bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish zarur: uning qiziqishlari, intellektual darajasi, emotsional ehtiyojlari va o'yin orqali o'rganish qobiliyati e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, kreativ tafakkurni shakllantirish uchun dars jarayonlarida noan'anaviy topshiriqlar, ochiq savollar, muqobil yechimli vazifalar, loyiha asosidagi o'qitish kabi usullar qo'llanishi lozim. Masalan, matematikada faqat to'g'ri javob emas, balki bir muammoni bir nechta yo'l bilan yechish rag'batlantiriladi.

2. Guilford, J.P. (1950). Creativity. American Psychologist.

Ona tilida esa, matn asosida alternativ yakunlar yozish yoki obrazlarga yangi xususiyatlar berish topshiriqlari orqali bolada tasavvur va tafakkur faollashadi.

Yangi yondashuvlardan biri — **“raqamli tafakkur maktabi”** modelini joriy etishdir. Bu modelga ko'ra, o'quvchilarga sun'iy intellekt, kod yozish, vizual dizayn, interaktiv dasturlar bilan ishlash kabi faoliyatlar orqali kreativlik rivojlantiriladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli muhit — AR (kengaytirilgan reallik), VR (virtual reallik), gamifikatsiya va mediamahsulotlar orqali bolalarda ko'rish, tasavvur qilish, kombinatsiyalash, dizayn qilish kabi ijodiy kompetensiyalarni kuchaytirish imkonini beradi.

Yangi taklif etilayotgan metodik yondashuv shundan iboratki: boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda “Tayanch g'oyadan divergensiya” usuli asosida ishlovchi dars bloklari ishlab chiqiladi. Bu usulda bolaga bitta oddiy fikr yoki predmet beriladi va undan maksimal darajada ko'p yangi variant va foydalanish imkonlari haqida o'ylash topshirig'i beriladi. Bu metod o'yin, muloqot, guruhviy fikrlash va vizual izlanishlar bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, kreativ tafakkurni o'lchash va baholashning o'ziga xos yondashuvlari ishlab chiqilishi kerak. Faoliyat natijasining yangiligi, dolzarbligi va subyektiv yondashuvi asosida individual va guruhviy baholash tizimlari taklif etilishi mumkin. Kreativ tafakkur — XXI asr ta'limining tamal tamoyillaridan biridir. Uni rivojlantirish orqali biz nafaqat innovatsion fikrlovchi

avlodni shakllantiramiz, balki har qanday muammoni ilg'or, moslashuvchan va mos fikr bilan yondasha oladigan barkamol shaxslarni voyaga yetkazamiz.

Biz albatta raqamli ta'lim sharoitini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha takliflar ham kiritmoqdamiz, ya'ni:

“Kreativ topshiriqlar banki” ni yaratish

Maktab darajasida har bir sinf uchun moslab ishlab chiqilgan, fanlararo yondashuvga asoslangan kreativ topshiriqlar banki tuzish lozim. Bu topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, muqobil qaror qabul qilishini, vizual va verbal tasavvurini rivojlantiradi. Masalan, "Bir kun quyosh chiqmasa, nima bo'ladi?", "Kvadrat shakli haqida ertak yozing", "O'z shahringiz uchun yangi pul birligi va dizayn ishlab chiqing" kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

“Raqamli kreativ portfel” (Digital Creative Portfolio) tizimini joriy etish

Har bir o'quvchi uchun elektron shaklda raqamli kreativ portfel yuritilishi mumkin. Bu portfelga bola ijodiy ishlari – rasm, ertak, loyiha, video, kodlangan kichik dasturlar, foto-topshiriqlar – joylashtiriladi. Bu orqali bolaning rivojlanish dinamikasini ko'rish, u bilan psixologik-pedagogik muloqotni chuqurlashtirish va kreativlik bahosini sifatli o'lchash imkonini beradi.

Takliflar asosida yuzaga keladigan yangiliklar va rivojlanishlar:

O'quvchilarning mustaqil va noodatiy fikrlash darajasi sezilarli oshadi. “Kreativ topshiriqlar banki” orqali o'quvchilar doimiy ravishda yangicha, noodatiy savol va muammolar ustida ishlashga odatlanadi. Bu esa ularning analitik, divergent fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagoglar uchun qulay metodik baza shakllanadi. Mazkur bank o'qituvchilarga har bir mavzuga mos kreativ mashqlarni tezkor tanlash va qo'llash imkonini beradi. Natijada, darslar mazmunan boyiydi va interaktivlik kuchayadi. Har bir o'quvchining ijodiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoni yaratiladi.

“Raqamli kreativ portfel” orqali o'quvchining barcha ijodiy ishlari (rasmlar, matnlar, videolar, g'oya jurnali) tizimli saqlanadi. Bu esa uning qobiliyatidagi o'sish, o'zgarish va yutuqlarini aniqlashga xizmat qiladi. Baholashda subyektivlik kamayadi, shaffoflik oshadi. Raqamli portfel asosida real ishlarga qarab baho beriladi. O'quvchining faolligi, ijodiy fikrlari, topshiriqlardagi o'ziga xoslik baholashda asosiy mezon bo'ladi. Raqamli ta'limga integratsiyalashgan ijodiy yondashuv shakllanadi. Mazkur takliflar orqali ta'lim jarayoniga kreativlikni chuqur singdirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa ta'limning qiziqarli, samarali va zamonaviy shaklga aylanishiga olib keladi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz kerakki, Kreativ tafakkur insonning muammolarga yangicha va ijodiy yondashishini ta'minlovchi psixologik jarayon bo'lib, uning rivojlanishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan, kreativ tafakkur – bu shaxsning fikrlash qobiliyatini kengaytirish, yangi g'oyalar yaratish va noan'anaviy yechimlarni topishga yo'naltirilgan murakkab jarayon. Ta'lim muhitida kreativ tafakkurni qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchilar o'zining ichki imkoniyatlarini kashf etadi, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi hamda zamonaviy dunyo talablariga moslashadi. Shu bois, pedagogik metodlar va psixologik texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali kreativ tafakkurni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

References:

**Используемая литература:
Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J. Guilford. Creativity. American Psychologist, 1950.
2. E. De Bono. Lateral Thinking: Creativity Step by Step. Harper & Row, 1970.
3. Karimov, A. Psixologik pedagogika asoslari. Toshkent, 2015.
4. Tursunova, N. Ta'limda kreativ tafakkurni rivojlantirish metodlari. Samarqand, 2018.
5. Abdullaev, S. Innovatsion ta'lim va kreativ fikrlash. Toshkent, 2020.